

MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Abduraxmonova Maftuna Jabborali qizi

Qo'qon universiteti

Maktabgacha ta'lim 2-24-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20377820>

Annotatsiya

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolajonlarimizni maktab ta'limiga to'g'ri va har tomonlama tayyorlash pedagogika sohasidagi eng qiziqarli muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Men talaba sifatida bog'chalarda amaliyot o'tash jarayonida shunga guvoh bo'ldimki, bolaning kelajakda maktabda qiynalmasdan o'qib ketishi nafaqat unga harflar va sonlarni yodlatishga, balki bog'chada turli xil faoliyat turlarini qanchalik to'g'ri tashkil etishimizga bevosita bog'liq ekan. Mening ushbu tadqiqotimdan ko'zlangan asosiy maqsad bog'chada bolalar faoliyatini, ya'ni qiziqarli o'yinlar, rasm chizish, loyihalash va birgalikda ishlash jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yish maktabga tayyorlovda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini amaliy jihatdan o'rganish va ko'rsatib berishdan iboratdir. Men ishimni olib borish davomida katta guruhdagi bolalarning real faoliyat jarayonlarini yaqindan kuzatdim hamda tarbiyachilar bilan suhbatlar o'tkazdim.

Kuzatishlarim shuni ko'rsatdiki, bola turli xil jamoaviy va mustaqil o'yinlarda, ijodiy ishlar va kichik mashg'ulotlarda faol ishtirok etsa, unda mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash, iroda, mustaqillik va do'stlari bilan til topishish kabi maktab uchun eng zarur bo'lgan xislatlar juda tez shakllanar ekan. Shuningdek, tizimli tashkil etilgan o'yin va mehnat faoliyatlari bolalarning qo'l mushaklarini mustahkamlab, ularni yozuv darslariga ham ruhan, ham jismonan tayyorlaydi. Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, ushbu tezida keltirilgan sodda tavsiyalar va faoliyat usullari maktabgacha ta'lim muassasalarida ishlayotgan yosh tarbiyachilar va amaliyotchi talabalar uchun juda asqotadi, chunki bolani faoliyat orqali maktabga tayyorlash uning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun mustahkam poydevordir.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, mening tadqiqotim, maktabga tayyorlash, bolalar faoliyati, o'yin va ta'lim, jamoaviy hamkorlik, mustaqil fikrlash, yosh tarbiyachilar, intellektual tayyorgarlik, ijodiy faollik, mantiqiy tafakkur, poydevor.

Kirish

Hozirgi kunda farzandlarimizni maktab ta'limiga har tomonlama sog'lom, ruhan va jismonan yetuk qilib tayyorlash hamda bog'chalarda ta'lim-tarbiya jarayonini qiziqarli faoliyatlar orqali tashkil etish masalasi davlatimiz siyosatining ham eng diqqat markazida turibdi. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlarida aynan bolalarni maktabga tayyorlash tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, darslarni majburlash va quruq yodlatish bilan emas, balki o'yinga yo'naltirilgan qiziqarli faoliyatlar asosida tashkil etish bosh maqsad qilib belgilangan. Shuningdek, Davlatimiz rahbarining PF-152-sonli Farmonlarida ham olti-yetti yoshli bolalarni maktab ta'limiga majburiy bir yillik bepul tayyorlash tizimini kengaytirish hamda ularning guruhdagi mustaqil ijodiy va amaliy harakatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa qilib ko'rsatilgan. Prezidentimizning PQ-4312-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan tizimni rivojlantirish konsepsiyasida ham bolaning maktabga tayyorlik darajasini faqat uning bilimi bilan emas, balki ijtimoiy, emotsional va jismoniy faoliyati orqali baholash zarurligi alohida uqtirilgan. Men ham o'z tadqiqotimda mana shu yuksak huquqiy

asoslarga tayanib, bog'cha darslarida bolajonlarimizning yoshiga mos keladigan turli o'yinlar, rasm chizish va mehnat faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish orqali ularni maktab sharoitiga stressiz qanday tayyorlash mumkinligini o'rganishga harakat qildim.

Hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolajonlarimizni maktab ta'limiga har tomonlama, to'g'ri va tizimli ravishda tayyorlash pedagogika sohasidagi eng qiziqarli, shu bilan birga mas'uliyatli muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Men talaba sifatida pedagogika fanining tub mohiyatini o'rganar ekanman, bolaning maktabda a'lo baholarga o'qishi va yangi muhitga qiynalmasdan ko'nikib ketishi nafaqat unga harflar va sonlarni quruq yodlatishga, balki bog'chada uning har kundalik faoliyatini qanchalik to'g'ri va mazmunli tashkil etishimizga bevosita bog'liq ekanligini chuqur anglab yetdim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilish, bolalarni zerikarli partalarga mixlab qo'ymasdan, ularni o'yin va qiziqarli mashg'ulotlar orqali hayotga tayyorlash bugungi kun pedagogikasining eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Men ham o'z tadqiqotimda an'anaviy ta'limdagi majburiy yodlatish metodlaridan butunlay voz kechib, bolalarning yoshiga mos keladigan turli xil ijodiy va amaliy faoliyat turlarini to'g'ri tashkil etish orqali ularni maktab darslariga qanday oson tayyorlash mumkinligini amaliy jihatdan o'rganishga harakat qildim.

Kichik va katta yoshdagi bolaning asab tizimi hamda jismoniy holati nihoyatda faol va harakatchan bo'lib, u dunyoni faqat bitta dars orqali emas, balki hamma narsani o'zi ushlab ko'rish, rasm chizish, loyihalash va turli o'yinlar o'ynash orqali juda tez tushunib oladi. Agar biz darslarda ko'pincha bolalarni uzoq vaqt jim o'tirishga majburlasak, bu holat ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini butunlay so'ndirib qo'yishi mumkin. Bog'cha hayotida tashkil etiladigan turli faoliyatlarning, masalan, syujetli-rolli o'yinlar, elementar mehnat, rasm chizish, loyihalash va tabiat qo'ynidagi sayrlarning eng ajoyib tomoni shundaki, ular bolani ruhan va jismonan maktab darslariga tayyorlaydi.

Masalan, bola oddiy rasmlar chizayotganda yoki loydan narsalar yasayotganda uning qo'l mushaklari va mitti barmoqlari mustahkamlanadi, bu esa kelajakda maktabda husnihat darslarida chiroyli va charchamasdan yozishiga yordam beradi. Shuningdek, turli konstruktorlar va o'yinlar vositasida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar bolalarda diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash, iroda, mustaqillik va mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiradi. Agar biz bog'chada bolalarning mana shunday harakatchanlik va ijodkorlik intilishlarini o'z vaqtida to'g'ri yo'naltirmasak, keyinchalik maktab yoshida ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish ancha qiyin kechishi mumkin.

Mening talabalik ilmiy izlanishlarim va bog'chalarda amaliyot o'tash davomidagi shaxsiy kuzatishlarim aynan mana shu qiziqarli faoliyat turlarini guruhlarda qanday samarali tashkil etish kerakligini ko'rsatib berishga qaratilgan. Tezis doirasida men bolajonlarning dunyoqarashini va darslarga bo'lgan ishtiyoqini qanday qilib jamoaviy loyihalar orqali yuqori bosqichga olib chiqish mumkin degan savolga amaliy javob izlashga harakat qildim. Amaliyot davomida real jarayonlarni yaqindan kuzatganimda shunga guvoh bo'ldimki, to'g'ri tashkil etilgan faoliyat davomida bolalar shunchaki jim o'tirib tarbiyachini tinglaydigan passiv tinglovchi emas, balki haqiqiy harakatchan va tashabbuskor shaxs rovida maydonga chiqishar ekan.

Ular guruh bo'lib o'yinlar o'ynayotganda, rollarni bo'lishib olishni, do'stlarining fikrini tinglashni va bir-biriga yordam berishni o'rganishadi, bu esa maktabdagi yangi sinf muhitiga oson kirishib ketishlariga zamin yaratadi. Bu jarayonda biz pedagoglar faqat buyruq beruvchi emas, balki bolaga to'g'ri yo'nalish ko'rsatuvchi eng yaqin do'st bo'lishimiz kerak. Biz amaliyotda sinab ko'rgan va tavsiya etayotgan qiziqarli faoliyat usullari maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga va men kabi yosh tarbiyachilar faoliyatini qiziqarli va mazmunli qilishga xizmat qiladi.

Bog'cha hayotida bolaning yetakchi faoliyati o'yin bo'lganligi sababli, maktabgacha ta'lim dasturidagi barcha aqliy, jismoniy va estetik vazifalar quvnoq syujetli-rolli o'yinlar, elementar mehnat, rasm chizish va konstruksiyalash loyihalari ichiga yashirilgan bo'lishi lozim. Bunday yondashuv bolaning mitti ongida o'qishga nisbatan qo'rquvni yo'qotadi va unda bilim olishga bo'lgan ichki qiziqish hamda motivatsiyani juda kuchli darajada uyg'otadi.

Ushbu muammoni amaliyotda oson va to'g'ri hal etish uchun guruhda bolalarning mayda motorikasini, ya'ni barmoq mushaklarini rivojlantiruvchi ijodiy faoliyat turlarini keng tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Katta guruh bolalari rasm chizish, loy yoki plastilindan har xil shakllar yasash, qog'ozlardan applikatsiyalar qilish va turli xil mayda konstruktorlarni yig'ish bilan shug'ullanganlarida ularning qo'l mushaklari mustahkamlanadi hamda ko'z bilan qo'l harakatlarining muvofiqlashuvi shakllanadi. Bu amaliy harakatlar kelajakda maktabda husniyat darslarida bolaning daftarga chiroyli, toza va asosiysi charchamasdan uzoq vaqt zo'ryapganida juda katta yordam beradi. Shuningdek, guruhda tashkil etiladigan navbatchilik va elementar mehnat faoliyati bolalarda mas'uliyat hissini, boshlagan ishini oxiriga yetkazish irodasini hamda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini tarbiyalaydi, bu esa maktabdagi mustaqil hayotda bolaning o'z partasini toza tutishi va buyumlarini asrashi uchun juda zarur poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bolalar faoliyatini tashkil etishning yana bir eng muhim va yosh tarbiyachilarga asqotadigan tomoni shundaki, u bo'lajak birinchi sinf o'quvchilarini jamoada ishlashga hamda ijtimoiy muhitga oson ko'nikishga o'rgatadi. Jamoaviy o'yinlar va sheriklikda bajariladigan loyihalar davomida bolalar o'zaro rollarni taqsimlab olishadi, umumiy qoidalarga bo'ysunishni, do'stlarining fikrini hurmat qilishni va yuzaga kelgan kichik muammolarni birgalikda yechishni o'rganishadi. Bu jarayon bolalarning nutqini o'stirish bilan bir qatorda, ularda maktabdagi yangi sinfdoshlar guruhiga stressiz integratsiyalashuv ko'nikmalarini shakllantiradi. Biroq pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, bolani maktabga tayyorlash faqat bog'chani ishi bo'lib qolmasdan, oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro uyg'un hamkorligi doirasida olib borilishi kerak. Ota-onalar ham uy sharoitida bolaning mustaqil o'yin va ijodiy faoliyatlar bilan shug'ullanishiga imkoniyat yaratishlari, ularni ko'p vaqt televizor yoki telefonga termilib o'tirishdan chalg'itishlari lozim. Agar ota-ona va tarbiyachi yagona maqsad atrofida birlashib, bolaning guruhdagi va uydagi faoliyatini qiziqarli qilib tashkil etsa, bolaning maktab ta'limiga moslashishi oson, quvnoq va muvaffaqiyatli kechadi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta guruh bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashda ularning kundalik faoliyatini to'g'ri va tizimli tashkil etish muammosini amaliy o'rganish olingan natijalarni umumlashtirish hamda yosh pedagoglar uchun muhim xulosalarni shakllantirish imkonini beradi. Bolaning maktabda qiynalmasdan, a'lo baholarga o'qib ketishi faqatgina uning harflar va sonlarni qanchalik bilishiga emas, balki bog'chada turli amaliy va ijodiy faoliyat turlarida qanchalik faol ishtirok etganiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Amaliyotda o'tkazilgan kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, tizimli tashkil etilgan o'yin, rasm chizish, loyihalash va elementar mehnat faoliyatlari bolalarda tanqidiy fikrlashni, qo'l barmoq mushaklarining mustahkamlanishini hamda muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyatini an'anaviy darslarga qaraganda ancha tez shakllantiradi. Shuningdek, Muhtaram Prezidentimizning PF-19-sonli va PF-152-sonli Farmonlarida belgilanganidek, darslarni majburlash bilan emas, balki o'yinga yo'naltirilgan qiziqarli faoliyatlar asosida tashkil etish tamoyili bolaning maktab sharoitiga stressiz va qo'rquvlariz ko'nikishiga mustahkam zamin yaratadi.

Guruhlarda o‘yin burchaklari va bolalar laboratoriyalaridan unumli foydalanish ta‘lim jarayonidagi zerikarlikni butunlay bartaraf etib, bolalarda yuqori darajadagi emotsional qulaylik va o‘qishga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Katta yoshdagi bola dunyoni harakat va amaliy ijodkorlik orqali anglagani bois, guruhda jamoaviy ishlash muhitini yaratish, bolalarni kichik guruhlarga bo‘lib, umumiy vazifalarni birgalikda hal qilishga yo‘naltiruvchi faoliyatlarni ko‘paytirish zarur. Bu jarayon bolalarning nutqini o‘stirish bilan bir qatorda, ularda maktabdagi yangi sinfdoshlar guruhiga oson integratsiyalashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Tarbiyachilar tomonidan dars o‘tishda bolalarga mustaqil tanlov va erkin harakat qilish imkoniyatini taqdim etish, uy sharoitida ham ota-onalar bilan hamkorlikda bolaning mustaqil o‘yin va ijodiy faoliyatlar bilan shug‘ullanishiga sharoit yaratish lozim. Muassasa metodistlari hamkorligida tarbiyachilarning bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha mahorat darslarini muntazam yo‘lga qo‘yish, ota-onalar uchun esa farzandini uyda maktabga jismonan va ruhan tayyorlash bo‘yicha tarqatma tavsiyalar tizimini ishlab chiqish kerak. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish – farzandlarimizning intellektual va jismoniy salomatligini asrashning hamda ularning birinchi sinfda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib shakllanishining mustahkam kafolatidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori.
3. Mirziyoyeva S.Sh. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni intellektual va ijtimoiy rivojlantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022. – 180 b.
4. Hasanboeva O.U., Tojiyeva M.X., Toshpo‘latova Sh.K. Maktabgacha ta‘lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2019. – 240 b.
5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.K. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2021. – 195 b.
6. Nishonova Z.T., Alimova G.X. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2018. – 210 b.
7. Egamberdieva N.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2020. – 230 b.
8. Tursunova M.A. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2017. – 160 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi. "Ilk qadam" maktabgacha ta‘lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). – Toshkent, 2022. – 144 b.